

## FARG'ONA VODIYSIDA PAXTACHILIK VA YENGIL SANOAT TARAQQIYOTI

(XIX-asr oxiri XX-asr boshlari)

**Ziyodullo Isokov**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida paxta yetishtirilishi, to'qimachilik sanoatida yuz bergan muhim transformatsion jarayonlar, iqtisodiy o'zgarishlar, savdo-sanoatga oid muhim masalalar manbalar asosida tahlil etilgan.

В этой статье раскрываются и анализируются основные задачи по выращиванию хлопка-сырца в Ферганской долине трансформационные процессы в текстильной промышленности экономические изменения и торговля в конце XIX-начале XX веков.

This article analyzes the main problems in growing cotton in the Ferghana valley, the transformatsion processes in the textile industry, trade and economic changes in the late XIX- early XX centuries.

Ma'lumki Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan butunlay bosib olingach, bu o'lkadan birinchi galda xomashyo bazasi sifatida foydalanish ko'zda tutiladi. Xonlikning asosiy qismi hisoblangan Farg'ona vodiysi esa o'zining sug'orma dehqonchilik uchun qulay shart-sharoitga egaligi bu yerda paxtachilikni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Xonlik davrida ham vodiyyda paxtaning turli mahalliy navlari yetishtirilgan bo'lsada<sup>1</sup>, asosan Rossiya imperiyasi, so'ngra sovetlar davriga kelib dehqonchilikning bu sohasi monopoliya darajasiga ko'tarilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Isoqov.Z Farg'ona vodiysi an'anaviy dehqonchilik madaniyati.-T.,2011. -47-48 b.  
<sup>2</sup> Ziyoyev X.X.Chorizm va paxta yakkahokimligi//Sharq yulduzi,1991,№5.

XIX asr oxiri –XX asr boshlariga kelib Farg’ona vodiysida bu sohani rivojlantirilishidan manfaatdor bo’lgan mustamlakachi hukumat turli imkoniyatlardan foydalanib paxtachilikni rivojlantirishga kirishdi. Buni o’sha davrdagi rus chinovnigi A.I.Krivosheyning “O’lkaga qimmat bo’lsada chetdan g’alla keltirib bu yerdagi ekin maydonlarini paxta uchun bo’shatish zarur” degan fikri ham tasdiqlaydi<sup>3</sup>. Manfaatdor kompaniya va shaxslar vodiyya Misr va Amerika hududlaridan paxtaning yangi navlarini keltirib mahalliy aholiga tarqata boshlashadi<sup>4</sup>. Turkistonda mustamlakachilik tuzumini o’rnatishdan ko’zlangan strategik vazifalardan biri o’lka iqtisodiy resurslaridan imperiyaning iqtisodiy manfaatlari yo’lida foydalanish bo’lganligi sababli, bu soha bilan bog’liq muammolar rasmiy matbuotning diqqat markazidagi mavzulardan biri sifatida muntazam yoritib borilgan. Matbuotda ayniqsa paxtachilik sohasiga katta e’tibor qaratilgans<sup>5</sup>. Turkistonda, xususan, Farg’ona vodiysida paxtachilikni rivojlantirishga shu darajada kirishilganki bu yerda hatto ilk bora paxtani hosilini yetishtirishda sun’iy o’g’itlardan ham foydalanilgan<sup>6</sup>.

Bu sohadagi siljishlar mahalliy matbuotda ham yoritib borilgan<sup>7</sup>. Turkiston taraqqiyparvarlari ham o’lka hayotida qishloq xo’jaligi alohida o’rin tutganligiga e’tibor bergenlar<sup>8</sup>. Biroq, shuni unutmaslik kerakki o’lkada olib borilayotgan barcha harakatlardan asosiy maqsad, Rossiya imperiyasining rivojlanib kelayotgan to’qimachilik sanoatini arzon xomashyo bilan ta’minlash edi. Paxtaga bo’lgan talabning oshib borishi mahalliy aholidan tashqari yirik rus kapitalistlarini ham o’ziga jalb qiladi<sup>9</sup>. XIX asr oxirlarida ular paxta hosili yetishtirishga ixtisoslashgan

<sup>3</sup> Кривошней А.И.Записка главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 г. – Спб.. 1912ю – 7.

<sup>4</sup> Самолевский В. Возделывание американского хлопчатника в Туркестанском крае // ТВ 1888 - №39.40.

<sup>5</sup> Shodmonova S. Turkiston tarixi – matbuot ko’zgusida.-T.,2011, 67 bet.

<sup>6</sup> Bu yerda Quvada ishga tushirilgan sun’iy o’g’it ishlab chiqaruvchi kichik sex nazarda tutilgan.

<sup>7</sup> // Turkiston viloyatining gazeti 1885 № 3,4,5,6,7,8,9,10.

<sup>8</sup> Rauf Muzaffarzoda Tuproq nadur // Sadoi Turkiston – 1914.-№14,18/

<sup>9</sup> Musayev.N. XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning shakllanishi.-T., - 2008, 19 bet.

yirik xo'jaliklar tuza boshlaganlar. Farg'ona vodiysida rus xo'jaliklari 500 desyatina paxta yetishtirgan, shundan 100 desyatinasi Namanganda, 280 desyatinasi Andijonda, 20 desyatinasi Qo'qonda va 80 desyatinasi Marg'ilonda joylashgan<sup>10</sup>. Farg'ona vodiysida bu davrga kelib butun Turkistonda bo'lgani kabi arzon garovga yer sotib olib, uni ijaraga berib yoki mardikorlar yollab ishlatuvchi mulkdorlar soni ko'paygan. Masalan, birgina Pop qishlog'ida 1000 dan ziyod xo'jalik paxta yetishtirish bilan shug'ullangan. O'sha davrdagi paxtazorlarning katta qismi boylarg'a tegishli bo'lib, ularning yerlari 100 tanobdan 1000 tanobgacha yetgan.

O'lkada paxta yetishtirilishning kuchayishi, o'lkadagi mahalliy sarmoyadorlarning ham ko'payishiga olib keldi. Rossiya imperiyasi hukmronligining dastlabki 10 yilidayoq ular rus kapitalining ishonchli vakillariga aylandilar. Ular rus va chet el savdo sanoat kapitali bilan o'lka mehnatkash dehqonlari o'rtasida vositachilik qilishib paxta savdosi bilan shug'ullanadilar. Mahalliy sarmoyadorlar Rossiya to'qimachilik sanoati uchun paxta tayyorlab beruvchi monopoliyalarni vujudga keltiradilar<sup>11</sup>. Farg'ona vodiysida paxtachilik va pillachilikning<sup>12</sup> rivojlanishi tufayli to'qimachilik sanoatining yuksalishi bozor munosabatlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Marg'ilonda tayyorlangan shoyi gazlamalar, ko'rpačalar va boshqa mahsulotlar Xitoyning Qoshg'ar, Buxoro, Turkiya shaharlariga<sup>13</sup>, Xo'jandda tayyorlangan matolar Sibir, Rossiyaning Yevropa qismiga, Kavkaz, Eron va Afg'onistonga olib ketilgan<sup>14</sup>. Namanganda to'qilgan bo'z gazlamalar esa asosan Qirg'izlar tomonidan sotib olingan<sup>15</sup>.

<sup>10</sup> Ziyorov X.X. Chorizm va paxta yakkahokimligi //Sharq yulduzi, 1991, №5.

<sup>11</sup> Musayev.N. XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi.-T., -2008, 19 bet.

<sup>12</sup>Шелководства в Туркестане // на рубеже – 1910 г- №278;Turkistonda ipakchilik to'g'risida// Turkiston viloyatining gazeti.-1913.№ 91.

<sup>13</sup> Валихонов Ч.Ч. Материалы и исследования о Кашкарии. Соч.т.II,-Алма-ата, 1962.-С.392.

<sup>14</sup> Турсунов Н.О. Из истории городского ремесла Северного Таджикистана.-Душанбе,1974.-С173.

<sup>15</sup> Валихонов Ч.Ч. Материалы и исследования о Кашгарии. Соч.т.II,-Алма-ата, 1962.-С.391.

To'qimachilik vodiyning Marg'ilon, Qo'qon kabi yirik shaharlarida yaxshi rivojlangan bo'lib, ular paxta va ipakdan mato to'qishgan. Bu kasb bilan vodiyda oilaviy shug'ullanuvchilar soni ko'p bo'lgan. XX asr boshlariga kelib rus to'qimachilik sanoati raqobatiga dosh berolmay qolgan mahalliy to'qimachilik ustaxonalarining soni kamayib ketgan. Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi sust edi. Buning bir qancha sabalari mavjud bo'lib<sup>16</sup>, ular hal etilmasdan turib bu yerda yirik sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirib bo'lmas, qolaversa Imperianing hukmron doiralari ham bunga yo'l bermasligi aniq edi. Buni isboti sifatida Turkiston general gubernatori lavozimida ishlagan A.V.Samsonovning "Paxtani qayta ishlash bo'yicha yangi, Turkiston fabrika-zavodchilik rayonini vujudga keltirish, birinchidan har yili 110000000 pud Turkiston paxtasini

Rossiyaning Yevropa qismiga yetkazib berayotgan u yoqdan Turkistonga manufaktura mahsulotlarini tashib keltirayotgan har ikkala temir yo'lga katta zarar keltiradi, ikkinchidan eng asosiysi, Moskva fabrikalarida qayta ishlanishi lozim bo'lgan paxtani Turkiston hududida qoldirilishi; ularga O'rta Osiyo va Fors bozorlarida o'zlarining ancha arzon mahalliy mahsulotlarini sotishiga imkon berib, Moskva manufaktura firmalari savdosini barbod qilishi mumkin", degan fikri yoki o'sha chinovnikning "...O'lkada ip-gazlama sanoatini rivojlantirish markaziy Rossiya sanoatiga putur yetkazadi" degan fikrlari buni tasdiqlaydi<sup>17</sup>. Bu fikrning keyinchalik sovetlar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini bugun tarix tasdiqlab turibdi. O'rta Osiyo rus kapitalistlarining xomashyo bazasi sifatida kuch bilan ushlab turildi. Mustamlakaga aylantirilgan Turkistonda xomashyo ko'p bo'lishiga qaramay, birorta ham to'qimachilik korxonasi qurilmadi<sup>18</sup>.

<sup>16</sup> Musayev.N. XIX asrning II yarmi – XX asrning boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi. – T., -2008, 54 bet.

<sup>17</sup> Mamashokirov S., Musayev N.U. Bozor iqtisodiyoti va insonparvarlik // Guliston, 1994, №2 4-bet.

<sup>18</sup>Житов К.,Непомнин В. От колониального рабства к социализму. –Т., 1939, С-19.

Yuqoridagilardan ko'rinaldiki XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida tub o'zgarishlar, transformatsion jarayonlar yuz bergen . O'lkada sanoat ishlab chiqarishning yangi ko'rinishlari vujudga kelgan, iqtisodiyotning yangicha tamoyillari paydo bo'lган. Biroq, imperiya ta'siridagi mustamlaka hududi sifatida o'lkamizda bu sohalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga imkoniyat berilmagan.